



YANGI O'ZBEKISTONDA MA'RIFATLI JAMIYAT YARATISHDA YOSHLARNING O'RNI

Maqsudova Gulbahor Abdujabbarovna

Toshkent shahar yuridik texnikumi

“Mutaxassislik fanlari” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Yangi davr boshlab bergan davrga mamlakatimiz ham yangi tashabbuslar bilan kirib bormoqda. Ta'lim, fan, sport, san'at, madaniyat kabi qator sohalarda uzoq yillardan beri tajriba yig'ib kelayotgan yoki sohaga yaqinda kirib kelgan yuqori salohiyat va kreativ fikrlashga ega bo'lgan yosh malakali kadrlarni tayyorlash zamon talabidir. Faktlarga yuzlanadigan bo'lsak, yurtimiz aholisining qariyb 64 foizini yoshlar, ya'ni, 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi. Albatta bu, davlatimiz zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklashini ko'z oldimizga keltirsak, juda katta e'tibor, g'amxo'rlikni talab etadi, ikkinchi tomondan yoshlarimizga ko'rsatiladigan e'tibor, ertaga ulkan yutuq va natijalarini ham beradi. Mamlakat hayotidagi madaniy, siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlar butunlay o'zgargan. Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston ma'rifatli jamiyatini yaratishda yoshlarning o'rni haqida atroflicha fikr va mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, ma'rifatli jamiyat, milliy taraqqiyot, milliy rivojlanish, ta'lim, fan va madaniyat.

"Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz,



Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq."

Shavkat Mirziyoyev

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Mamlakatimizning kelajagi bo‘lmish yoshlarimizni har tomonlama yetuk, bilimli, salohiyatli shaxs, komil inson sifatida tarbiyalash masalasiga bugungi kunda o‘ziga xos tarzda, zamonaviy yo‘llar bilan, ularning barcha huquq va erkinliklari, manfaatlari va imkoniyatlarini himoya etish aslida zamon bilan birgalikda ya‘ni hamohang tarzda olib borilmoqda. Bu esa masofaviy ta’lim va oflayn tarzdagi ta’limni sifatli va uzluksiz tashkil etishga yordam beryapti. Shuningdek, yoshlarning bilim olish huquqini ta’limda ta’minlaganining o‘zi O‘zbekistonning bugun yoshlarga berayotgan ta’lim-tarbiya va ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlik, e’tiborning amaliy ifodasidir. Bugungi kunda jamiyatimiz hayotidagi siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlar butunlay o‘zgargan. Mamlakatimizni yangi, demokratik qiyofada jumlai jahonga tanitayotgan ushbu davrda O‘zbekiston tanlagan yo‘l tinchlik va barqarorlik, shuningdek, yaxshi qo‘shnichilikka asoslangan.

Shu bois ham, yoshlar barcha davrlarda jamiyatning faol qatlami sifatida e’tirof etib kelingan. Sharq Uyg‘onish davrida ham, jadidlar faoliyatida ham, jamiyatning yangilanishida yoshlarning o‘rni beqiyos bo‘lgan. Shu jihatdan muntazam shakllanib boruvchi bu qatlam doimiy yo‘naltirib va qo‘llab-quvvatlab turishni talab etadi. Bu esa, davlat tomonidan yoshlarning mamlakat manfaatlari yo‘lida erkin ijtimoiylashuvi va o‘zini samarali namoyon etishi uchun maqbul sharoit va imkoniyat yaratish hamda yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi yoshlarga oid davlat siyosatini anglatadi.

Yoshlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari, iqtidorli va iste’dodli yoshlarni, yoshlar tadbirkorligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash,



yoshlar ijtimoiy xizmatiga oid normalar o'z aksini qonun hujjatlarida topgan. Amalda bugun o'z ifodasini topgan yoshlar uchun imkoniyatlar ijod, prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablarning faoliyati, oltin, kumush medal joriy etilgani, fan olimpiadasi g'oliblari, Zulfiya, "Mard o'g'lon" "Kelajak bunyodkori" kabi davlat mukofotlarini joriy etilganining tub maqsadi, qonunning hayotiyliigi va ijrosini ta'minlashdir. "Yoshlarga oida davlat siyosati" to'g'risidagi ahamiyatli tomoni yana shundaki, unda yoshlarning tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari uchun sharoitlar yaratish, ularni har xil salbiy illatlar ta'siridan himoya etishda, huquqbuzarliklarning nisbatan ertaroq oldini olish niyatida "Yoshlar –kelajagimiz" davlat dasturi doirasida O'zbekiston yoshlar agentligi bilan birgalikda jamg'arma tashkil etildi. Shuningdek, ushbu jamg'arma maqsadi, g'oya va loyihalarini amalga oshirishlari uchun tijorat banklari orqali yillik 7 foiz miqdorida imtiyozli kreditlar va lizing xizmatlari ko'rsatish; hamda dastur doirasida ajratilayotgan kreditlar miqdorining 50 foizidan oshmagan miqdorda kafilliklar berish kabi imtiyozlarni amalga oshirdi.

Ma'lumki, "yangi" degan so'zning biz uchun alohida ahamiyati bor. O'tgan asrning boshlarida yurtparvar, millatparvar bobolarimiz "jadidchilik", ya'ni, yangilanish va erkinlik, adolat va tenglik, ilm-ma'rifat va milliy o'zlikni anglash g'oyalarini bayroq qilib, kurash maydoniga mardona chiqqanlarini barchamiz yaxshi bilamiz. Bu ulug' zotlarning maqsadi – jaholat va qoloqlik girdobida qolib kelayotgan Turkiston xalqini dunyoviy ilm-fan, ilg'or kasb-hunarlar bilan qurollantirib, umumbashariy rivojlanish yo'liga olib chiqishdan iborat edi. Jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usuldagi maktablar, teatr, kutubxona va muzeylar, gazeta va jurnallar, Turkiston farzandlarini chet ellarga o'qishga yuborish maqsadida tuzilgan xayriya jamiyatlari xalqimizni necha asrlik g'aflat uyqusidan uyg'otdi, milliy ozodlik harakati uchun beqiyos kuch berdi. Yangi O'zbekiston deb atalishi qaysidir ma'noda butun boshli mamlakatimizda deyarli barcha soha va tarmoqlarni qamrab olgan



holatda katta o'zgarishlar va yangilanishlarga bo'lgan ulkan maqsadning debochasi deb bemaolol aytishimiz mumkin.

Ayniqsa, uyushmagan yoshlar uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kasbga yo'naltirish va bandligini ta'minlash, tashabbuslarini rag'batlantirish borasidagi chora-tadbirlar so'nggi yillarda yangi bosqichga ko'tarildi. Bunda tuman va shaharlarda ushbu hududlar prokurorlari boshchiligida, tuman hokimining yoshlar siyosati bo'yicha o'rinbosari, ichki ishlar bo'limi boshliqlarining yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosarlari, O'zbekiston yoshlar agentligi tuman va shahar kengashlari raislari hamda tadbirkorlikka ko'maklashish markazlarining rahbarlari ishtirokida yosh tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash bo'yicha komissiyalar tuzish belgilab qo'yilgandi. Besh tashabbusning har bir yo'nalishini tuman va shaharlarda tizimli amalga oshirish bo'yicha vazifalar belgilandi.

Shu ma'noda, bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan "Yangi O'zbekiston" g'oyasi zamirida ana shunday ulug' ajdodlarimiz, umuman olganda, milliy tariximizdir. Birinchi va Ikkinchi uyg'onish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari ham mujassam, desak, adashmagan bo'lamiz. Insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, har qaysi xalq hayotidagi ma'naviy uyg'onish jarayonlari milliy o'zlikni anglashga olib keladi hamda mamlakatning iqtisodiy, madaniy taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradi. Bunday ijtimoiy noyob hodisa "Renessans" – uyg'onish, qayta tiklanish, yuksalish deb atalishi barchamizga ayon.

Yoshlarimiz uchun, ayniqsa, qizlarimizning yana-da ilimli bo'lishlari uchun, Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasiga xotin-qizlarni o'qishga qabul qilish uchun 30 foiz maqsadli kvota ajratish masalasi ko'tarilgan. Demak, bundan keyin "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun mamlakatimizda yoshlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini mustahkamlashga, yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda davlat



organlari hamda boshqa tashkilotlar mas'uliyatini kuchaytirishga, ushbu sohada sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Aslini olib qarasak, XXI asr siz u bizni intilish, izlanish, nimadir sohaga yangilik kiritish, o'z ustida tinimsiz ishlashga undamoqda. Men ham Yangi O'zbekistonimizni yanada rivojlantirishga o'z hissamni yangi tashabbuslarim bilan hissa qo'shishni maqsad qildim. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim Uyg'onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun "Yangi O'zbekiston" va "Uchinchi Renessans" so'zlari hayotimizda o'zaro uyg'un va hamohang bo'lib yangramoqda, xalqimizni ulug' maqsadlar sari ruhlantirmoqda. Bu jumlar qulog'imizga bugungi kunda tez- tez chalinib turishi va o'zlashib qolgani ham haqiqat. Bugungi kunda O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanib bormoqda. Aynan mana shu jarayon men uchun islohotlarimizning eng katta natijasidir. Chunki, maqsadning aniqligi – harakatlar samarasini ta'minlaydigan eng muhim mezondir. Yangi O'zbekiston – bu, avvalo, yangicha iqtisodiy munosabatlar, yangicha iqtisodiy dunyoqarash demakdir. Shu bois mamlakatimiz iqtisodiy tizimi to'liq qayta qurilmoqda, qanchalik og'ir bo'lmasin, bozor mexanizmlarini amalda joriy etishni boshladik.

Shu bilan birga yoshlarni jismoniy chiniqtirish va sport sohasidagi qobiliyatlarini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratib berish bo'yicha umumta'lim maktablarida sport turlarini ko'paytirish va to'garaklarni faoliyatini to'liq yo'lga qo'yish zarur. Sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktablariga 33 438 nafar o'quvchi-yoshlar jalb etilgan. Umuman olganda, yana bir tashabbusim shuki, sport va to'g'ri ovqatlanish tizimini xalq orasida keng targ'ib etish orqali aholini salomatlik darajasini oshirish kerak.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonda milliy taraqqiyot yuklashi uchun avvalo, xalqimizning, mas'ul shaxslar va rahbarlarning qarashlari va fikrlashini o'zgartirish zarur. Milliy taraqqiyot masalasi — yurt taqdiri, mamlakat kelajagi uchun har qachongidan



muhim hisoblanadi. Sababi, yurtimiz aholisi bir asrlik mustamlakachilik davrida yo'qotilgan moddiy hamda ma'naviy boyliklar o'rnini qayta tiklash, iqtisodiyotni rivojlantirish, milliy o'zlikni asrash yo'lida kechayu - kunduz mehnat qiladigan davr keldi.

Yangi O'zbekistonda milliy taraqqiyot yuksalishi uchun avvalo, xalqimizning, mas'ul shaxslar va rahbarlarning qarashlari va fikrlashini o'zgartirish zarur. Yangi Ozbekiston yoshlari yaratilayotgan imkoniyatlardan munosib foydalanishi va o'z natijasi ya'nikim, jamiyatga foyda keltirishi kerak. Yangi O'zbekistonda milliy taraqqiyot yanada rivojlanishi har bir "o'zbekman" degan shaxsning yelkasidagi burchi ekanligini anglash zarur. Shuni ta'kidlash joizki, yangi O'zbekiston yoshlari - mamlakatimiz kelajagi va istiqboli demakdir. Yangi O'zbekistonda milliy taraqqiyot yanada rivojlanishi har bir o'zbekman degan shaxsning yelkasidagi burchi ekanligini anglash zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Istiqbolli loyihalar, yangi tashabbus va g'oyalar xalqimiz farovonligining asosidir.
<https://www.uzavtoyul.uz/uz/post/istiqbolli-loyihalar-yangi-tashabbus-va-goyalar-xalqimiz-farovonligining-asosidir.html>
2. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. <https://iiv.uz/news/yangi-ozbekiston-demokratik-ozgarishlar-keng-imkoniyatlar-va-amaliy-ishlar-mamlakatiga-aylanmoqda>
3. Xalqaro Konferensiya Yangi O'zbekistonning Milliy barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM): yutuqlar va istiqbollar.
<https://www.uz.undp.org/content/uzbekistan/uz/home/presscenter/articles/2021/09/international-conference-onnew-uzbekistans-national-sdgs--milest.html>



4. Ta'lim tizimi islohotlari O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri poydevorini yaratadi - Xalq so'zi. <https://xs.uz/uz/post/talim-tizimi-islohotlari-ozbekistonda-yangi-ujgonish-davri-pojdevorini-yaratadi>
5. <https://isrs.uz/oz/ozbekiston-yangiliklari/yangi-ozbekistonning-taraqqiyot-solnomasi>
6. <https://atm.andmiedu.uz/2017-2021-yillarda-ozbekiston-respublikasini-rivojlantirishning-beshta-ustuvor-yonalishi-boyicha-harakatlar-strategiyasi/>
7. Yangi O'zbekiston gazetasi: <https://yuz.uz/uz/news/yangi-ozbekistonning-kelajak-yoshlari-imkoniyat-va-huquqiy-kafolat?view=ozbekiston-belgisi-kokrak-nishoni-kimlarga-nasib-etdi>